


**Surxondaryo viloyatida  
nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi**  
*2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)*

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan  
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Surxondaryo viloyatida 2025-yil yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 481,8 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,4 % ga o'sgan.

**Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

## **II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori**

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-dekabr oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

|                             | <b>Ming so'm</b> | <b>O'sish sur'ati, % da</b> |
|-----------------------------|------------------|-----------------------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>4481,8</b>    | <b>117,4</b>                |
| Termiz sh                   | 6441,3           | 118,0                       |
| Oltinsoy                    | 3408,7           | 119,9                       |
| Angor                       | 3591,4           | 114,8                       |
| Bandixon                    | 3502,8           | 119,2                       |
| Boysun                      | 4350,9           | 129,7                       |
| Muzrabot                    | 3730,9           | 115,8                       |
| Denov                       | 3799,3           | 110,0                       |
| Jarqo'rg'on                 | 4035,6           | 112,7                       |
| Qumqo'rg'on                 | 3729,0           | 113,5                       |
| Qiziriq                     | 3543,2           | 126,3                       |
| Sariosiyo                   | 4288,7           | 111,4                       |
| Termiz                      | 4775,5           | 132,8                       |
| Uzun                        | 3514,3           | 116,8                       |
| Sherobod                    | 3552,2           | 113,2                       |
| Sho'rchi                    | 3703,8           | 116,5                       |

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Termiz shahri 6 441,3 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,4 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Termiz tumanida 4 775,5 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 132,8 %), Boysun tumanida 4 350,9 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 129,7 %), Sariosiyo tumanida 4 288,7 ming so'mni (111,4 %), Denov tumanida 3 799,3 ming so'mni (110,0 %), Muzrabot tumanida 3 730,9 ming so'mni (115,8 %) va Qumqo'rg'on tumanida 3 729,0 ming so'm (113,5 %) ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Sho'rchi tumanida 3 703,8 ming so'm (116,5 %), Angor tumanida 3 491,4 ming so'mni (114,8 %), Sherobod tumanida 3 552,2 ming so'mni (113,2 %), Qiziriq tumaida 3 543,2 ming so'm (126,3%), Uzun tumanida 3 514,3 ming so'mni (116,8 %), Bandixon tumanida 3 502,8 ming so'm (119,2 %) hamda Oltinsoy tumanida 3 408,7 ming so'mni (119,9 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025-yilning yanvar–dekabr oylariga oid bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

| Iqtisodiy faoliyat turi nomi                                | Ming so'm      | O'sish sur'ati, %da |
|-------------------------------------------------------------|----------------|---------------------|
| Sanoat                                                      | 5344,4         | 120,0               |
| Qurilish                                                    | 4255,9         | 101,9               |
| Savdo                                                       | 3819,1         | 101,5               |
| Tashish va saqlash                                          | 7530,9         | 114,5               |
| Yashash va ovqatlanish                                      | 5414,0         | 162,3               |
| Axborot va aloqa                                            | 8196,1         | 101,9               |
| Bank, sug'urta, lizing, kredit<br>va vositachilik faoliyati | 12514,5        | 115,3               |
| Ta'lim                                                      | 3863,1         | 117,6               |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy<br>xizmatlar ko'rsatish       | 3516,5         | 111,0               |
| <b>O'rtacha</b>                                             | <b>4 481,8</b> | <b>117,4</b>        |

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'ati Yashash va ovqatlanish sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 162,3 % ni, ish haqi miqdori esa 5 414,0 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, Bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 12 514,5 ming so'mni tashkil etib, o'sish 15,3 % ga, Sanoat sohasida ish haqi miqdori 5 344,4 ming so'mni tashkil etib, 20,0 % ga, Ta'lim sohasida o'rtacha ish haqi 3 863,1 ming so'mni tashkil etib, 17,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 3 516,5 ming so'mni tashkil etib, 11,0 % ga, qurilish sohasida 4 255,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga, shu bilan birga axborot va aloqa sohasida 8 196,1 ming so'mni tashkil etib, 1,9 % ga, savdo sohasida 3 819,1 ming so'mni tashkil etib, 1,5 % ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

#### IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025-yilning 4-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 12 514,5 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 7 065,3 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 4 250,5 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 3 267,7 ming so'mga, sanoat sohasida 2 655,6 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 1 057,6 ming so'mga, qurilish sohasida 936,3 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

#### O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dynamikasi, ming so'm




**Sanoat sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 5 344,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 6 905,0 ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 805,7 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 4 002,9 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida 3 306,4 ming so'm ekanligi kuzatildi.

#### Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




**Savdo sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 3 819,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 8 023,9 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 4 258,2 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 2 939,9 ming so'mni tashkil etgan.

#### Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




**Tashish va saqlash sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 7 530,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport 6 218,4 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti 8 509,5 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 2 974,6 ming so'mni tashkil etgan.

**Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**




**Axborot va aloqa sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 8 196,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi dastur yaratish va radiosozlarni tashkil etish faoliyati xizmatlar sohasida 7 468,7 ming so'mni, nashriyot xizmati ko'rsatish 3 648,8 ming so'mni, aloqa sohasi 9 028,5 ming so'mni tashkil etgan.

**Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**




**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 12 514,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 13 656,1 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 12 476,6 ming so'mni tashkil etgan.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**



**Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 863,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 10 640,3 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 414,1 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 3 819,5 mingni so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 2 030,1 ming so'mni tashkil etgan,



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

## V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

Surxondaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Hisobot oyi uchun** nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

$W_n$  – nominal hisoblangan ish haqi;

$F$  – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

$L$  – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)